Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

# MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

## TAHRIR HAY'ATI

**Muzaffar KOMILOV** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR** – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

**Bahrom ABDUHALIMOV** – tarix fanlari doktori, professor

**Davronbek MAXSUDOV** – tarix fanlari doktori, professor

**Ahadjon HASANOV** – tarix fanlari doktori, professor

**Zohidjon ISLOMOV** – filologiya fanlari doktori, professor

**Shovosil ZIYODOV** – tarix fanlari doktori, professor

**Uyg'un G'AFUROV** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Jamoliddin KARIMOV** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Ibrohim USMONOV** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Ahmad Sa'd DAMANHURIY** – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Mahmud Erol QILICH** – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

**Nazir Muhammad AYYAD** – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Rejep TUZJU** – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

**Muhammad Rashid AKPINAR** – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Ashirbek MUMINOV** – tarix fanlari doktori, professor

**Kamaluddin Nurdin MARJUNI** – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

**Jasur NADJIMITDINOV** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent



*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.*



**MUASSIS:**
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

Bosh muharrir:
**Komiljon Shermuxamedov**
*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Bosh muharrir o'rinbosari:
**Shahzod Islamov**
*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Sahifalovchi:
**Zarifjon Arslonov**

Dizayner:
**Zarifjon G'ulomov**

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.



**Tahririyat manzili:**
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
**E-mail:** info@maturidijournal.org
**Web-sahifa:** maturidijournal.org
**Telefon:** (+99855) 515-98-98,



ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

# MUNDARIJA

## ISLOMSHUNOSLIK

**Ikhtiyor ABDURAKHMONOV**
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini ..... 5

**Jobir ELOV**
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ..... 9

**Yahyobek HAYITALIYEV**
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) ..... 16

**Abdullatif ALLOQULOV**
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi ..... 22

**Qudratulloh SIDIQMETOV**
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari ..... 27

**Botirkhon RUZIYEV**
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili ..... 32

**Abdulaziz YAKHSHILIKOV**
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ..... 40

**Oishakhon SALIMOVA**
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni ..... 47

**Aydos YAKUPOV**
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi ..... 50

**Nasrullo TOKHTAYEV**
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari ..... 55

## ISLOM HUQUQI

**Muhammad Khodiy AKHMEDOV**
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar ..... 59

## DINSHUNOSLIK

**Bobomurod RUSTAMOV**
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati ..... 63

**Abdullaziz ABDUVAKHIDOV**
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni ..... 67


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

## ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

**Tokhir KHATAMOV**
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi ..... 72

**Ahmadkhon RASHIDOV**
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari ..... 81

**Samariddin AKHMEDOV**
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi ..... 89

**Nozima IBRAGIMOVA**
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari ..... 95

**Khalilulloh SAIDAKBAROV**
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari ..... 102

**Zarifjon GULOMOV**
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari ..... 107


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/7

**Abdulaziz YAKHSHILIKOV**[a]

[a] *Research Fellow*
*Imam Maturidi International Scientific Research Center*
*11A, Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan*
*E-mail: abdulazizmumin83@gmail.com*

# AQOID ILMI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada islomdagi aqoid ilmi, uning paydo bo'lishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda mazkur ilmga turli davrlarda berilgan nomlar atroflicha tahlil qilinadi. Avvalo, aqida ilmining dastlabki manbalari bo'lgan Qur'on va sunnat asosida shakllangani, ilmiy bahs sifatida esa sahobiylar va tobeinlar davrida poydevori qo'yilgani yoritiladi. Shuningdek, maqolada aqoid ilmining tadvin bosqichida turli firqalar va mazhablarning shakllanishi, rivojlanish bosqichida esa kalom ilmining falsafa va mantiq bilan uyg'unlashuvi hamda keyingi asrlarda uning zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda qayta rivojlanishi tahlil etiladi. Maqola yakunida aqida ilmiga nisbatan qo'llangan «al-Fiqh al-akbar», «kalom», «usul ad-din» va «aqoid» kabi atamalar qiyosiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Tadqiqot aqida ilmining metodologiyasi va tarixiy taraqqiyotini izchil yoritish maqsadida ilmiy, tarixiy va qiyosiy metodlar asosida olib borilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *aqida, kalom, ta'rif, falsafa, usul ad-din, tavhid, ahli sunna, tarix.*

# THE FORMATION AND DEVELOPMENTAL OF THE SCIENCE OF AQOID

***Abstract.*** *This article provides a comprehensive analysis of the science of Aqidah (Islamic creed), its origin, the stages of its historical development, and the various names by which this discipline has been known throughout different periods of Islamic intellectual history. It first explains that the science of Aqidah was founded upon the primary sources of Islam – the Qur'an and the Sunnah – and that its foundations as a field of scholarly inquiry were laid during the era of the Companions (Sahabah) and the Successors (Tabiun). The article further examines the codification stage of the discipline, during which various theological schools and sects emerged, as well as its developmental stage, when the science of Kalām became closely integrated with philosophy and logic. In addition, it analyzes the subsequent revival and adaptation of this discipline to meet the intellectual and religious needs of later periods. Finally, the study presents a comparative analysis of the principal terms historically used to designate this field, including al-Fiqh al-Akbar, Kalām, Uṣūl al-Dīn, and ʿAqāʾid. The research employs historical, comparative, and analytical methods to provide a systematic account of the methodology and historical evolution of the science of Islamic creed.*

***Keywords:*** *Aqidah, Kalam, definition, philosophy, Usul al-Din, Tawhid, Ahl al-Sunnah, history.*

Ilk islom davrida, boshqa islomiy ilmlar kabi, aqida ilmi ham hali mustaqil fan sifatida shakllanmagan edi. Mazkur ilm o‘z taraqqiyoti davomida bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin. Paydo bo‘lish bosqichi – xronologik jihatdan hijriy birinchi asr va ikkinchi asrning boshlarini qamrab oladi. Ushbu bosqich kalom ilmining dastlabki shakllanishi hamda asosiy e’tiqodiy masalalar muhokama qilingan davr hisoblanadi. Tadvin va firqalar shakllanishi bosqichi – hijriy ikkinchi asr boshlaridan taxminan beshinchi asr oxirigacha bo‘lgan to‘rt asrlik davrni qamrab oladi. Bu bosqichda kalomga oid asarlar ta’lif etila boshlandi, shuningdek, xavorij, mo‘tazila va boshqa aqidaviy firqalar shakllandi. Rivojlanish va falsafa bilan uyg‘unlashuv bosqichi – hijriy oltinchi asrdan to‘qqizinchi asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda kalom ilmi falsafa bilan chuqur uyg‘unlashib, uning aqliy va mantiqiy asoslari yanada mustahkamlandi. Susayish va taqlid bosqichi – hijriy o‘ninchi asrdan o‘n ikkinchi asr oxirigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu bosqichda kalom ilmi rivojida nisbiy susayish kuzatilib, yangi nazariyalar ishlab chiqish o‘rniga mavjud qarashlarga taqlid qilish ustunlik qildi. Zamonaviy bosqich – so‘nggi ikki asrni qamrab oladi. Bu davrda kalom ilmi qayta rivojlanib, zamonaviy intellektual va ijtimoiy muammolarga mos yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Endi mazkur besh bosqichga qisqacha tavsif beramiz. Paydo bo‘lish bosqichi e’tiqodiy masalalar yuzasidan dastlabki bahs-munozaralar boshlangan davrni anglatadi. Ushbu bahs-munozaralar ayrim masalalar bo‘yicha fikriy ixtiloflarni yuzaga keltirgan va vaqt o‘tishi bilan ayrim toifa va guruhlar tomonidan muayyan yo‘nalishlar sifatida qabul qilina boshlangan. Biroq bu davrdagi muhokamalar to‘liq yozma shaklda tadvin etilmagan, mazkur yo‘nalishlar esa hali mukammal mazhab darajasiga yetmagan edi. YA’ni, ularning e’tiqodiy masalalarning barchasi yoki aksariyatini qamrab olgan tizimli nazariya va manhajlari mavjud bo‘lmagan. Shu bois ushbu guruhlar, asosan, bir yoki bir nechta e’tiqodiy masala yuzasidan o‘z qarashlarini bildirish bilan cheklangan.

Paydo bo‘lish bosqichini tahlil qilish tabiiy ravishda ushbu ilmning kelib chiqishi haqidagi masalaga murojaat qilishni taqozo etadi. Xususan, kalom ilmi islomiy muhitda mustaqil ravishda shakllanganmi yoki uning vujudga kelishiga tashqi omillar ta’sir ko‘rsatganmi, degan savol yuzaga keladi. Bu masala kalom tarixi davomida keng muhokama qilingan mavzulardan biri bo‘lib, tasavvuf, fiqh va hatto islom dinining kelib chiqishi haqidagi turli qarashlar kabi bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan.

Ayrim g‘arblik tadqiqotchilar hanuzgacha kalom ilmining ayrim masalalari boshqa dinlar yoki falsafiy maktablar ta’sirida shakllangan, degan fikrni ilgari surmoqdalar. Biroq zamonaviy tadqiqotlar, ham Sharq, ham G‘arb olimlarining izlanishlari, ushbu yondashuvdan ancha ilgarilab, kalom ilmining asosan islomiy manbalarga tayangan holda shakllanganini e’tirof etadi. Ularga ko‘ra, mazkur ilm o‘zining dastlabki bosqichida Qur’on va sunnat asosida vujudga kelgan bo‘lib, tashqi omillar uning keyingi rivojlanish jarayonlarigagina muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan.

Ayrim ulamolarning ta’kidlashicha, kalom ilmiga tashqi ta’sirlar aniq va ravshan tarzda uning uchinchi rivojlanish bosqichida, ya’ni hijriy beshinchi asrdan keyin namoyon bo‘la boshlagan. Jumladan, doktor Ali Samiy Nashshor (1917–1980) quyidagilarni ta’kidlaydi: «Mening fikrimcha, bu ilm musulmonlarning sof ilmiy izlanishlari mahsulidir. Shubha yo‘qki, mutakallimlar falsafiy muhit ichida, turli dinlar va falsafiy oqimlarning ta’siri hamda hujumlari sharoitida faoliyat yuritganlar. Ular fath qilingan o‘lkalarda tarqalgan sharq maktablari va turli aqidalardan ayrim juz’iy g‘oyalarni o‘zlashtirgan bo‘lishlari mumkin. Biroq hijriy beshinchi asrgacha kalom ilmi o‘z mohiyatiga ko‘ra to‘laqonli islomiy ilm bo‘lib qolgan»[1].

Mazkur fikr kalom ilmining shakllanishi islomiy manbalarga asoslanganini, falsafiy ta’sirlar esa unga faqat keyingi bosqichlarda qisman singganini ko‘rsatadi. Bu qarashning to‘g‘riligini tasdiqlovchi muhim dalillardan biri kalom ilmiga asos solgan dastlabki bahs va masalalarning Qur’on va sunnat ta’sirida shakllanganidir. Ya’ni, e’tiqodiy mavzularga oid ilk bahs va ixtiloflar yuzaga kelganda, sahobiylar va tobeinlar ularga fatvolari hamda ilmiy mulohazalari orqali munosabat bildirganlar. Shu tariqa, ular kalom ilmi mazkur nom bilan shakllanishidan avval uning nazariy poydevorini yaratganlar.

Sa’duddin Taftazoniy (1322–1390) «Sharh al-Maqosid» asarida bu haqda shunday yozadi: «Olim sahobalarning ilmiy mulohazalari ham kalom hisoblanadi, garchi u davrda bu ilm hali shu nom bilan atalmagan bo‘lsa ham. Chunki ularning amaliy masalalarga oid bilimlari, garchi o‘sha vaqtda

[1] Ali Samiy Nashshor. Nash’at al-fikr al-falsafiy fi-l-islom. – Qohira: Dor al-ma’orif, nashr yili ko‘rsatilmagan. J. 1.– B. 3.


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

hozirgidek tartibga solinmagan va tadvin qilinmagan bo‘lsa ham, fiqh hisoblangan»[2].

Qur’on kalom ilmining ham ilk shakllanish bosqichida, ham keyingi taraqqiyot jarayonlarida hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatgan asosiy manba hisoblanadi. Bu ta’sir bir necha jihatlarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, Qur’onda Alloh taoloning zoti va sifatlari, nubuvvat, qayta tirilish va oxirat kabi asosiy e’tiqodiy mavzular ochiq va ravshan bayon etilgan. Shu bilan birga, mazkur masalalar aql va fitratga muvofiq dalillar, mantiqiy asoslar hamda hujjatlar bilan asoslab berilgan.

Qur’onning kalom ilmiga ta’siri faqat e’tiqodiy haqiqatlarni bayon qilish bilan cheklanmaydi. U turli botil aqidalar va g‘oyalarga qarshi ilmiy va mantiqiy uslubda munozara yuritadi. Jumladan, dahriylik, butparastlik, yahudiylik va nasroniylik kabi e’tiqodiy qarashlar tanqid qilinib, islom aqidasi haq e’tiqod sifatida asoslab beriladi. Shu tariqa, Qur’on botil tushunchalarni rad etish orqali sof islomiy aqidani himoya qiladi va uning atrofida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan shubhalarga javob beradi. Natijada, u kalomiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi uchun asosiy manba hamda metodologik yo‘nalish vazifasini bajaradi.

Qur’onning kalom ilmiga ko‘rsatgan muhim ta’sirlaridan yana biri inson aqlini tafakkur va mushohada qilishga undashidir. U faqat aqldan foydalanishga chaqiribgina qolmay, balki haqiqatni dalil, tafakkur va mushohada orqali anglashni talab qiladi. Shu bois islom ta’limotida imon ko‘r-ko‘rona taqlidga emas, balki dalil va ishonchga asoslanishi lozimligi ta’kidlanadi. Natijada imon inson qalbida xotirjamlik, mustahkam ishonch va fikriy barqarorlik asosida qaror topadi.

Qur’onning kalom ilmiga ko‘rsatgan yana bir muhim ta’siri uning muhkam[3] va mutashobih[4] oyatlarni o‘z ichiga olganidir. Mutashobih oyatlar, ya’ni zohiriy ma’nosi to‘liq anglashilmaydigan va ta’vilga ehtiyoj seziladigan oyatlar turli talqin va ta’villarga yo‘l ochgan. Bu esa aqidaviy masalalarda fikrlar xilma-xilligi va ayrim ixtiloflarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Shu tariqa, Qur’on nafaqat e’tiqodiy haqiqatlarning asosini belgilagan, balki ilmiy izlanish va fikriy tahlil uchun zamin yaratgan muqaddas manba sifatida kalom ilmining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Sunnat[5]ga kelsak, aqidaviy masalalarni anglash va ular haqida izlanish maqsadida savol berish Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam tomonidan man etilmagan. Aksincha, u zot sahobiylarning savol va shubhalariga javob berib, ularning qalblarida xotirjamlik va ishonchni qaror toptirganlar. Ayrim mualliflar sahobalar aqida masalalari bilan shug‘ullanmagan yoki imon haqiqatlarini chuqur anglamagan, degan fikrni ilgari surgan bo‘lsalar-da, manbalar buning aksini ko‘rsatadi. Sahobiylar tushunmagan masalalar yuzasidan Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamga murojaat qilar, u zot esa ularga atroflicha javob berib, masalani tushuntirganlar.

Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamga nafaqat sahobiylar, balki muxoliflar ham turli maqsadlarda savollar bilan murojaat qilganlar. Dushmanlari u zotni ojiz qoldirish maqsadida savol bergan bo‘lsalar, sahobalar haqiqatni anglash va imonlarini mustahkamlash niyatida savol berganlar. Faqat inson bilishi mumkin bo‘lmagan g‘aybiy masalalar, jumladan, qiyomatning qachon sodir bo‘lishi kabi mavzular bundan mustasno bo‘lgan. Bu holat sunnatda aqidaviy masalalarni o‘rganish, anglash va ular haqida mulohaza yuritishning qonuniy asosi mavjud ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam musulmonlar o‘rtasidagi behuda tortishuv va ixtiloflarni, ayniqsa, aql orqali qat’iy yechimga erishish qiyin bo‘lgan qadar kabi masalalardagi munozaralarni ma’qul ko‘rmaganlar. Biroq bu holat u zotning aqidaga oid savollarga javob berishdan tiyilganlarini anglatmaydi. Aksincha, musulmonlar va g‘ayrimusulmonlar tomonidan berilgan savollarga vahiy asosida yoki Alloh taolo bildirgan ilmga muvofiq javob berganlar.

Mushriklar ba’zan ahli kitoblar[6] bilan maslahatlashib, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamni sinash maqsadida turli savollar tayyorlaganlar. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam esa bunday savollarga vahiyga tayangan holda javob berganlar. Bu holat u zotning aqidaviy masalalarni anglash va o‘rganishga yo‘l ochganlarini, biroq tortishuv va bahsda haddan oshishni ma’qul ko‘rmaganlarini ko‘rsatadi.

[2] Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-maqosid. – Pokiston: Dor al-maorif an-nu’moniya, 1981. – B. 6-7.

[3] Muhkam oyat – ma’nosi ochiq-ravshan, bir qancha ma’nolarni ehtimol qilmaydigan oyat bo‘lib, unga amal qilish va hukm chiqarishda ikkilamchi fikr talab qilinmaydi.

[4] Mutashobih oyat – zohiriy ma’nosidan aniq hukm chiqarish qiyin bo‘lgan, ta’vilga muhtoj oyat.

[5] Sunnat – Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning so‘zlari, amallari va tasdiqlari (sukut bilan roziligi)dan iborat bo‘lib, islomda Qur’ondan keyingi ikkinchi asosiy manba hisoblanadi.

[6] Ahli kitob – ilohiy kitoblar nozil qilingan ummatlar, ya’ni yahudiylar va nasroniylar. Ularga Tavrot va Injil kabi ilohiy kitoblar berilgan.


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam da’vat va munozara jarayonida dalil va hujjatlar keltirgan, zarurat tug‘ilganda esa ularni qo‘shimcha asoslar bilan mustahkamlaganlar. Shu bois sunnati nabaviya aqliy dalillardan foydalanish hamda aqidaviy masalalarda shariat doirasida bahs-munozara yuritishning asosiy tamoyillarini belgilab bergan. Bunday munozaralar haqiqatni bayon qilish va uni tushuntirish maqsadida olib borilgan bo‘lib, ularda Qur’on va sunnatga tayanish doimo asosiy mezon sifatida saqlangan. Shu tariqa, sunnat kalom ilmida fikriy izlanish va dalillarga asoslangan yechimlarning shariat talablari doirasida rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratgan.

Tadvin va firqalar shakllanishi bosqichi hijriy ikkinchi asr boshlaridan boshlanadi. Bu davrda musulmonlarning aqidaga oid izlanishlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Aqidaviy masalalarga bag‘ishlangan maxsus ilmiy halqalar shakllana boshladi, fikriy qarashlar asta-sekin muayyan yo‘nalishlarga ega bo‘lib, tizimlashdi hamda mukammal mazhablar vujudga kela boshladi.

Endi gap alohida masalalar yuzasidan fikr bildirish haqida emas, balki aqidaning turli sohalari bo‘yicha aniq, tizimli va mustaqil qarashlarga ega ilmiy maktablarning shakllanishi haqida borar edi. Bu mazhablar muayyan firqa va guruhlar tomonidan qabul qilinib, ular tarkibida yetakchilar bilan bir qatorda ergashuvchi tarafdorlar ham mavjud bo‘lgan. Ular mazkur aqidaviy nazariyalarni nafaqat nazariy jihatdan rivojlantirgan, balki jamiyatning ma’naviy, siyosiy va ijtimoiy hayotida ham amaliy jihatdan tatbiq etishga intilganlar. Natijada, mazkur bosqich kalom ilmining mustaqil ilm sifatida shakllanishi va turli mazhablar doirasida tizimlashuviga zamin yaratdi. Bu davrda xorijiylik, hashaviylik, mo‘taziliylik, isnoashariylik, ismoiliylik hamda ahli sunna val jamoaning ash’ariylik va moturidiylik maktablari shakllandi.

Rivojlanish va falsafa bilan uyg‘unlashuv bosqichi kalom ilmi tarixidagi eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Kalom maktablari shakllanib, mustahkam nazariy tizimlarga aylanganidan so‘ng, hijriy VI asrdan boshlab kalom ilmi falsafa bilan chuqur o‘zaro ta’sirda rivojlana boshladi. Bu bosqichda yangi metodlar, mantiqiy uslublar va falsafiy kategoriyalar kalomiy tadqiqotlarda keng qo‘llanildi. Natijada, kalom ilmining mavzulari, mazmuni, uslubi, tadqiqot metodlari, mavzularni tasniflash tartibi va ilmiy istilohlari sezilarli darajada takomillashdi.

Mazkur davrda kalom ilmi musulmon faylasuflarining ilmiy merosi bilan o‘zaro uyg‘unlashdi. Bu holat nafaqat ilohiyot sohasida, balki tabiiy ilmlar va boshqa nazariy fanlarda ham namoyon bo‘ldi. Bunga asosiy omil sifatida islom aqidasiga zid hisoblangan falsafiy g‘oyalarga ilmiy raddiya berish va kalomiy nuqtai nazarni mustahkamlash ehtiyoji xizmat qildi. Shu maqsadda mutakallimlar faylasuflarning ayrim aqliy va mantiqiy usullaridan foydalanib, ularni kalom ilmining maqsadlariga moslashtirishga harakat qildilar. Bu orqali ular islomiy nuqtai nazar asosida borliq haqida yaxlit metafizik nazariyani shakllantirishga intildilar.

Mazkur rivojlanishning dastlabki belgilari avvalgi bosqichlarda ham kuzatilgan bo‘lsa-da, uning eng yuqori cho‘qqisi hijriy VI–IX asrlarda namoyon bo‘ldi. Agar mutakallimlar Qur’on va sunnatga asoslangan naqliy dalillarga tayanmaganlarida, bu davrda kalom bilan falsafa o‘rtasidagi farq ancha qisqargan bo‘lar edi. Shu bilan birga, ko‘pchilik kalom ulamolari yunon mantig‘ini qabul qilib, uning shakliy usullaridan foydalangan holda an’anaviy kalomiy metodlarni ham saqlab qoldilar. Bu metodlarning aksariyati fiqh va usulul-fiqhda shakllangan bahs uslublariga tayangan edi.

Kalom ilmidagi o‘zgarishlar faqat uning mazmuni va metodologiyasi bilan cheklanmay, mavzularni tasniflash tartibida ham namoyon bo‘ldi. Ilk mutakallimlar asarlarini odatda nazar, ilmning haqiqati va bilim manbalari kabi muqaddimaviy mavzular bilan boshlagan bo‘lsalar, keyingi davr ulamolari asarlarining avvalida al-umur al-omma (الأمور العامة), ya’ni «umumiy masalalar» deb nomlangan bo‘limni keltirganlar. Ushbu bo‘limlarda an’anaviy nazar va ma’rifat qoidalari bilan bir qatorda mantiq, metafizika va tabiat falsafasiga oid mavzular ham muhokama qilingan. Bu muhokamalar mavjudotga xos umumiy hukmlar, xususan, uning vojib yoki mumkinligi kabi masalalarni qamrab olgan bo‘lib, ular aqidaviy va ilohiy masalalarni ilmiy asoslash uchun zarur deb hisoblangan.

Kalom va falsafaning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida kalomiy istilohlar ham rivojlanib, mazmunan kengaydi va falsafiy tushunchalar bilan yaqinlashdi. Holbuki, ilgarigi davrlarda bu istilohlar asosan Qur’on va fiqhiy merosga tayangan edi.

Susayish va taqlid bosqichi. Agar oldingi bosqich kalom ilmining yuksalish davri bo‘lgan bo‘lsa, mazkur bosqichda unda fikriy susayish va ijodiy turg‘unlik kuzatildi. Bu davrda ilmiy faoliyat asosan avvalgi asarlarni sharhlash, muxtasarlash,


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

hoshiyalash yoki tanqid qilish bilan cheklanib, yangi nazariya va g‘oyalar yaratish ikkinchi darajaga tushib qoldi. Shu bilan birga, mazkur xulosa hozirgi kunda ma’lum bo‘lgan manbalarga asoslanadi. Kelgusida yangi manbalarning aniqlanishi yoki o‘rganilishi bu bahoni qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirishi mumkin. Shunga qaramay, hijriy X–XII asrlarda kuzatilgan ushbu fikriy turg‘unlik butun islomiy intellektual hayotga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatdi. Ayni paytda, shu davrning o‘zida keyinchalik zamonaviy bosqichning shakllanishiga zamin yaratgan yangi intellektual harakatlar ham yuzaga kela boshladi[7].

To‘rtinchi bosqichning eng muhim xususiyatlaridan biri kalom ilmiga oid klassik matnlarga sharh, hoshiya va ta’liqalar yozish an’anasining keng tarqalganidir. Bu davrda ilmiy faoliyat, asosan, avvalgi manbalarni izohlash, tahlil qilish va ularga sharhlar bitishga qaratildi. Mazkur bosqichning mashhur namoyandalari qatoriga Habibulloh Mirzajon (vaf. 1586-y.), Sayalkutiy (vaf. 1657-y.), Shamsuddin Xayoliy (vaf. 1456-y.), Isomuddin Isfiroiniy (vaf. 1538-y.) va boshqalar kiradi.

Zamonaviy bosqich. Umumiy tarixiy yondashuvga ko‘ra, zamonaviy fikrning shakllanishi milodiy XVI–XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. Biroq islom olamida bu jarayon hijriy XII, ya’ni milodiy XVIII asrning ikkinchi yarmigacha kechikdi. Buning asosiy sabablari sifatida musulmon jamiyatida kuzatilgan fikriy turg‘unlik, ilmiy faollikning susayishi, ijodkorlikning pasayishi va taqlidning kuchayishi ko‘rsatiladi.

Ayni shu davrda G‘arbda Uyg‘onish (Renessans) va undan keyingi ilmiy taraqqiyot natijasida jamiyat hamda ilm-fan izchil rivojlandi. Bu jarayon G‘arb davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan ustunlikka erishishiga, shuningdek, musulmon mamlakatlarining katta qismi mustamlakachilik bosimi ostiga tushishiga olib keldi. Natijada, G‘arb falsafasi, zamonaviy ilm-fan va sekulyar g‘oyalar islomiy muhitga keng ta’sir ko‘rsata boshladi.

Bu davrda madrasa va universitetlarda aqida ilmini o‘qitishning yangi shakllari shakllandi. Xususan, zamonaviy universitetlarda «Usuluddin»[8] fakultetlari tashkil etilib, ularda aqida ilmi an’anaviy islomiy manbalar bilan bir qatorda qiyosiy dinshunoslik, ratsional tahlil va mantiqiy tadqiqot kabi zamonaviy metodlar asosida ham o‘qitila boshlandi.

Zamonaviy bosqichda ilmul-kalom mavzulari ham kengaydi. Endi u faqat Allohning sifatlari, qadar kabi klassik bahslar bilan cheklanmay, din va ilm-fan munosabati, din va davlat, aql va vahiy, inson huquqlari, erkinlik va taqdir kabi dolzarb masalalarni ham qamrab oldi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy bosqichda aqida ilmi bir tomondan islomiy aqidani himoya qilish, ikkinchi tomondan esa zamonaviy intellektual oqimlar va g‘oyalarga ilmiy munosabat bildirish vazifasini bajara boshladi. Shu tariqa, ilmul-kalomning metodologiyasi, mavzulari va manbalarga yondashuvi kengayib, zamonaviy ehtiyojlarga muvofiq takomillashdi.

Aqida ilmi o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida turli davrlarning ilmiy muhiti va tushunchalariga muvofiq bir nechta nomlar bilan atalgan. Ushbu ilmga berilgan eng qadimiy nomlardan biri hijriy ikkinchi asrning buyuk mujtahid imomlaridan, mashhur fiqhiy mazhab asoschisi va ahli sunna val-jamoa ulamolari orasida kalom ilmining asoschilaridan biri sifatida e’tirof etilgan Imom A’zam Abu Hanifa (699–767) rahimahullohga nisbat beriladi. U zot mazkur ilmni «al-fiqh al-akbar» («katta fiqh») deb atagan. Bu nom bilan e’tiqodiy hukmlarni o‘rganuvchi ilmning martabasi amaliy fiqhdan ustun qo‘yilgan. Chunki amaliy hukmlarni o‘rganuvchi fiqh Alloh taoloni tanish, shariatning haq ekaniga ishonish va mukallaf[9]ning unga itoat qilish majburiyatini qabul qilish kabi e’tiqodiy asoslarga tayanadi. Shu bois e’tiqodiy masalalar «usul» (asoslar), amaliy masalalar esa «furu’» (tarmoqlar) deb ataladi[10].

Demak, bu yerda e’tiqodiy va amaliy ilmlar o‘rtasidagi farq ular o‘rganadigan shariat hukmlarining xususiyatiga qarab belgilanadi. Asosiy e’tiqodiy hukmlarni o‘rganuvchi ilm «al-fiqh al-akbar» yoki «kalom» deb atalsa, amaliy hukmlarni o‘rganuvchi ilm odatda «fiqh» nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Shu asosda keyingi davr kalom ulamolari, jumladan, Imom Najmiddin Umar Nasafiy (1068–1142) va uning mashhur shorihi Sa’duddin Taftazoniy quyidagi xulosani keltiradilar: «Shariat hukmlari ikki turga bo‘linadi: amaliyotga oid hukmlar «far’iy» yoki «amaliy», e’tiqodga oid hukmlar esa «usul» yoki «aqoid» deb ataladi. Amaliy hukmlarni tafsiliy

[7] Doktor Hasan Shofi’iy. Al-Madxal ila dirosat al-ilm al-kalom. – Qohira: Maktaba vahba, 1991. – B 58-59.

[8] Usuluddin fakulteti – islom ta’lim muassasalaridagi maxsus fakultet bo‘lib, islom dinining e’tiqodiy, nazariy va ma’naviy asoslari o‘qitiladi. Ularda asosan aqida, tafsir, hadis, tasavvuf, mantiq va falsafa kabi fanlar o‘rgatiladi.

[9] Mukallaf – shariat hukmlarini bajarishga mas’ul bo‘lgan aqli sog‘lom va balog‘at yoshiga yetgan musulmon shaxs.

[10] Kamoliddin Bayoziy. Ishorat al-marom. – Karachi: Dor zamzam 2004. – B 28-29.


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

dalillar orqali bilish «fiqh», aqidaviy masalalarni dalillari bilan bilish esa «kalom» deb yuritiladi»[11]. Ushbu ta'rif fiqh va kalom ilmlari o'rtasidagi chegarani aniq belgilab, har birining tadqiqot doirasi va vazifasini yoritadi.

Aqida ilmining keng tarqalgan nomlaridan yana biri «kalom» atamasidir. Bu nom ham hijriy ikkinchi asrda muomalaga kirgan. Manbalarda Imom Abu Hanifa, Imom Molik (711–795), Imom Shofe'iy (767–820) hamda Ja'far Sodiq (vaf. 765-y.)ning kalom va mutakallimlar haqida fikr bildirganliklari rivoyat qilingan. Keyinchalik «ilmul-kalom» atamasi Ibn Xaldun (1332–1406) davrigacha va undan keyin ham mazkur ilmning eng mashhur nomlaridan biri bo'lib qoldi. Hozirgi kunda ham ushbu atama ilmiy adabiyotlarda keng qo'llaniladi.

«Kalom» so'zi arab tilida lug'aviy jihatdan «gap», «nutq» va «bayon» ma'nolarini anglatadi. Bu atamaning mazkur ilmga nisbatan qo'llanishi bir necha sabab bilan izohlanadi. Sa'duddin Taftazoniy «Sharh al-aqoid an-Nasafiyya» asarida bu haqda turli fikrlarni keltiradi. Jumladan, har bir masala «الكلام في كذا وكذا» (al-kalomu fi kaza va kaza), ya'ni «falon masala haqida so'z» iborasi bilan boshlangani uchun mazkur ilm «kalom» deb atalgani ta'kidlanadi. Shuningdek, Allohning kalomi azaliy ekani haqidagi bahslar ushbu ilmning eng muhim mavzularidan biri bo'lgani ham bu nomning qo'llanishiga sabab sifatida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, ushbu ilm shariatning e'tiqodiy haqiqatlarini dalillar asosida bayon qilish va ularni himoya etish imkonini bergani uchun ham «kalom» deb nomlangan.

Hozirgi davrda ayrim g'arb va turk tadqiqotchilari mazkur ilmga nisbatan «ilohiyot» yoki «teologiya» atamalarini ham qo'llaydilar[12]. Biroq islomiy ilmiy an'anada «ilmul-kalom» atamasi asosiy nom sifatida saqlanib qolgan.

Aqida ilmining yana bir mashhur nomi «usulud-din» hisoblanadi. Bu atama islom shariatining e'tiqodiy asoslarini o'rganuvchi ilmni anglatadi. Avval ta'kidlanganidek, shariat hukmlari «usul» va «furu'»ga bo'linadi. «Usulud-din» atamasini ilk bor qo'llagan olim sifatida Abul Hasan Ash'ariy (874–936) e'tirof etiladi. Buni uning «al-Ibona an usul ad-diyona» («Din asoslari haqida bayon») asari ham tasdiqlaydi. Shuningdek, Abul Muin Nasafiyning (vaf. 1114-y.) «Tabsirat al-adilla fi usul ad-din» va Abdulqohir Bag'dodiyning (vaf. 1037-y.) «Usul ad-din» nomli asarlari ham mazkur atamaning keng qo'llanganini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda «usul ad-din» atamasi ko'pincha «ilmul-kalom» ma'nosida ishlatilgan. Masalan, «Miftah as-sa'ada» asari muallifi «kalom ilmi deb ataladigan usul ad-din»[13] iborasini keltiradi. Shu sababli keyinchalik ushbu sohaga ixtisoslashgan universitet fakultetlari ham «Usuluddin» fakulteti deb nomlana boshlagan.

Mazkur ilmning nisbatan keyinroq shakllangan nomlaridan biri «ilm al-aqoid» hisoblanadi. Ehtimol, bu atama hijriy to'rtinchi asrdan boshlab keng qo'llanila boshlagan. «Aqoid» so'zi «aqida» so'zining ko'pligi bo'lib, lug'aviy jihatdan «e'tiqod qilinadigan narsalar» ma'nosini anglatadi. Istiloh sifatida esa u shariatda mukallaf shaxsning ishonishi va tasdiqlashi lozim bo'lgan e'tiqodiy qoidalarni ifoda etadi.

Ko'plab ulamolar e'tiqodiy masalalarga bag'ishlangan qisqa risolalar yozganlar. Bunday asarlar, odatda, «aqida» deb nomlangan bo'lib, ular muallifning yoki u mansub bo'lgan mazhabning e'tiqodiy qarashlarini aks ettirgan. Buning mashhur namunasi sifatida Imom Tahoviy (852–933)ga nisbat beriladigan «al-Aqida at-tahoviya» asarini keltirish mumkin.

Aqida ilmi yana «ilm at-tavhid» nomi bilan ham mashhur. Bu atama Abu Mansur Moturidiy (vaf. 944-y.)ning «Kitob at-tavhid» asarida uchraydi. Umuman, yuqorida qayd etilgan nomlarning barchasi islomiy ilmiy an'anada ko'pincha umumlashtirilgan holda «ilmul-kalom» deb atalgan, mazkur ilm bilan shug'ullangan olimlar esa «mutakallimlar» nomi bilan mashhur bo'lganlar.

Aqoid ilmi islom ta'limotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning shakllanish tarixi islomning ilk davrlariga borib taqaladi. Dastlab Payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ta'limotlari va sahobiylarning ilmiy mulohazalari asosida amaliy ko'rinishda mavjud bo'lgan ushbu ilm keyinchalik tadrijiy ravishda nazariy asoslarga ega mustaqil fan sifatida shakllandi. Maqolada tahlil qilingan paydo bo'lish, tadvin va firqalar shakllanishi, rivojlanish va falsafa bilan uyg'unlashuv, susayish va taqlid hamda zamonaviy bosqichlar aqoid ilmining tarixiy taraqqiyotini, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari va ilmiy ahamiyatini yoritib beradi.

[11] Kamoliddin Bayoziy. Ishorat al-marom. – Karachi: Dor zamzam, 2004. – B. 30.

[12] Oqilov Saidmuxtor. Kalom / o'quv qo'llanma. – Toshkent: «Hilol Nashr» nashriyoti, 2019. – B. 16.

[13] Ahmad ibn Mustafo Toshkuprizoda. Miftah as-sa'ada va misbah as-siyada. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya,1985. – J. 2. – B. 15.



ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Tadqiqot natijalari aqoid ilmi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan nazariy fan, balki jamiyatning intellektual ehtiyojlariga javob beradigan, aql va naql uyg‘unligini ta’minlaydigan hamda islomiy e’tiqodni ilmiy asosda himoya qilishga xizmat qiladigan muhim ilm sohasi ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu ilmning turli davrlarda «al-fiqh al-akbar», «ilm al-kalom», «usul ad-din», «ilm al-aqoid» va «ilm at-tavhid» kabi nomlar bilan atalgani uning vazifasi, metodologiyasi va mazmuni tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib borganini anglatadi. Har bir atama muayyan davrning ilmiy va fikriy muhitini hamda mazkur ilmning o‘sha bosqichdagi o‘rnini ifoda etadi.

Zamonaviy bosqichda aqoid ilmi o‘zining an’anaviy manbalari va metodologik asoslarini saqlagan holda, fan va din munosabati, falsafiy oqimlar, inson huquqlari, din va davlat munosabatlari hamda zamonaviy shubhalarga ilmiy javob berish kabi dolzarb masalalarni ham qamrab olmoqda. Bu esa aqoid ilmining faqat e’tiqodiy masalalar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy intellektual muhitda ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, aqoid ilmi tarixiy taraqqiyoti davomida islomiy e’tiqodning nazariy asoslarini shakllantirish, ularni ilmiy jihatdan asoslash va turli davrlarda yuzaga kelgan fikriy muammolarga javob berish vazifasini bajarib kelgan. Mazkur jihatlar uning islomiy ilmlar tizimidagi muhim o‘rni va dolzarb ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

## MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Ali Samiy Nashshor. Nash’at al-fikr al-falsafiy fi-l-islom. – Qohira: Dor al-ma’orif, nashr yili ko‘rsatilmagan. – J. 1.
2. Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-Maqosid. – Pokiston: Dor al-maorif an-nu’moniya, 1981.
3. Doktor Hasan Shofeiy. Al-Madxal ila dirosat al-ilm al-kalom. – Qohira: Maktaba vahba, 1991.
4. Kamoliddin Bayoziy. Ishorat al-marom. – Karachi: Dor zamzam, 2004.
5. Oqilov Saidmuxtor. Kalom / o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Hilol Nashr» nashriyoti, 2019.
6. Ahmad ibn Mustafo Toshkuprizoda. Miftah as-sa’ada va misbah as-siyada. – J. 2. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1985.


## REFERENCES


1. Ali Samiy Nashshor. Nash’at al-fikr al-falsafiy fi-l-islom. – Qohira: Dor al-ma’orif, nashr yili ko‘rsatilmagan. – J. 1.
2. Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-Maqosid. – Pokiston: Dor al-maorif an-nu’moniya, 1981.
3. Doktor Hasan Shofeiy. Al-Madxal ila dirosat al-ilm al-kalom. – Qohira: Maktaba vahba, 1991.
4. Kamoliddin Bayoziy. Ishorat al-marom. – Karachi: Dor zamzam, 2004.
5. Oqilov Saidmuxtor. Kalom / o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Hilol Nashr» nashriyoti, 2019.
6. Ahmad ibn Mustafo Toshkuprizoda. Miftah as-sa’ada va misbah as-siyada. – J. 2. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1985.




ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI**

**Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.**

**Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.**

# MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

**Maxsus son/2026**

*Bosh muharrir:* **K.Shermuxamedov**
*Muharrir:* **A.Tajiyev**
*Nashr uchun mas’ul:* **Z.Arslonov**
*Chet tillaridagi matnlar muharriri:* **O.Sotvoldiyev**
*Dizayner-sahifalovchi:* **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.